

O’XSHATISHNING KOGNITIV SEMANTIK TAHLILI

Hojanova O’ringul Smayilovna

O’zDJTU Ingliz tili I fakulteti

Ingliz tili nazariy aspektlari №1 kafedrasasi o‘qituvchisi

Email: hojanovauringul01@gmail.com

Telefon raqami: (94)6126634

Abstract: The main purpose of this paper is to implement a complex classification of cognitive-semantic models of similes on the materials of English, Uzbek and Kazakh languages and to determine the practical similarities and differences of simile in the literary text of English, Uzbek and Kazakh languages. This article presents a cognitive semantic analysis of simile in a literary text, the object of analysis being simile. The main conceptual structure of cognitive semantics, the function of analogy in the mechanism of knowledge modeling, was determined.

Key words: *Cognitive process, conceptual association, conceptual integration, coding process, conceptual field, coding system, cognitive breed, analogy*

Аннотация: Основная цель статьи – осуществить комплексную классификацию когнитивно-семантических моделей сравнений на материалах английского, узбекского и казахского языков и определить практические сходства и различия сравнений в художественном тексте английского, узбекского и казахского языков. В данной статье представлен когнитивно-семантический анализ сравнения в художественном тексте, объектом анализа которого является сравнение. Определена основная концептуальная структура когнитивной семантики, функция аналогии в механизме моделирования знаний.

Ключевые слова: *Когнитивный процесс, концептуальная ассоциация, концептуальная интеграция, процесс кодирования, концептуальная область, система кодирования, когнитивная порода, аналогия*

Annotatsiya: Ushbu ishning asosiy maqsadi ingliz, o‘zbek va qozoq tillari materiallari asosida taqqoslashning kognitiv semantik modellarini keng qamrovli tasniflash va ingliz tilining badiiy matnidagi taqqoslashning amaliy o‘xshashliklari va farqlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqolada tahlil ob’ekti badiiy matndagi o‘xshatishning kognitiv semantik tahlilidir. Kognitiv semantikaning asosiy kontseptual tuzilishi va bilimlarni modellashtirish mexanizmida analogiyaning vazifasi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *Kognitiv jarayon, kontseptual birlashma, kontseptual integratsiya, kodlash jarayoni, kontseptual maydon, modellashtirish tizimi, dunyoning kognitiv suvrati, analogiya*

Kirish

So’nggi o‘n yilliklarda tilni o‘z sohibi, uning milliy mentaliteti, milliy madaniyati bilan birga tadqiq etishga e’tibor kuchaydi. Bu tilshunoslikda insonning olamni

o‘zlashtirishdagi muhim kognitiv faoliyati bo‘lmish o‘xshatish amaliyotining natijasi bo‘lgan o‘xshatishlarga ham millatning milliy-mental xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida qarash ehtiyojini yuzaga keltirdi. Zero, milliy mentalitetga xos turg‘unlashgan axloq qoidalari, qadriyatlar, xalqning milliy tafakkuri bilan bog‘liq jihatlar tilning asrlar davomida shakllangan barqaror birliklarida yorqin aks etadi. Dunyo tilshunosligida til va tafakkur, til va madaniyat munosabatdorligi masalasi antik davrdan boshlab faylasuf va tilshunoslar e’tiborini o’ziga jalb etib kelgan. Shunga qaramay, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik hukm surgan XIX asrda tilshunoslikning e’tibor markazida tillarning qarindoshligi masalasi bo‘ldi. XX asrda sistem-struktur tilshunoslikning rivoj topishi va uning tilni asosan immanent tarzda o‘rganishga bo‘lgan harakati tilning sub'ektiga e’tiborni susaytirdi. XX asr so‘ngi va XXI asr tilshunosligida til antropologik hodisa sifatida tan olinib, asosiy e’tibor lisoniy hodisalarini insonning kognitiv tabiatini tadqiq etishga qaratildi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy sohadagi islohotlar samarasini oshirish zarurati bu yo‘nalishdagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarishni talab qilmoqda

Olamni bilishning eng qadimgi usullaridan biri taqqoslash bo‘lib, tushungan, his qilgan, ko‘rgan, bilgan narsalarni o‘xshatish va ma'lum bir predmetning hossalarini bir biriga yo‘naltirish orqali yangi ma'noni hosil qiluvchi aqliy jarayon hisoblanadi. Tasviriy o‘xshatish (keyingi qatorlarda o‘xshatish) muammosi tilshunoslar tomonidan turli hil pozitsiyalarda ko‘rib chiqilgan. Dastlab tadqiqotchilar tomonidan tasviriy o‘xshatish notiqqliq san'atining ritorik figurasi sifatida o‘rganilgan bo‘lsa, keyinchalik badiiy adabiyotdagi o‘xshatish obraz yaratuvchi sifatida tadqiq etila boshlandi. Eng qadimgi psixologik yondashuv o‘xshatishda psixologik asoslarning umumiyligi yoki ular yaratadigan ta'sir tabiatini o‘rgangan. Huddi shu tushunchaga asoslanib, Aristotel obraz ko‘chimini sinflarga ajratgan va uning ijodiy davri ya'ni XV asrda buyon o‘xshatish ilmiy jihatdan o‘rganilib kelinmoqda.

Aristotel “o‘xshatish”ni ya'ni, inglizcha “simile” terminini “imago” deb nomlagan. Uning tasvirlashicha, imago biror bir predmetni yoki hodisani boshqa bir predmetning o‘xhashligi bilan taqqoslovchi til uslubidir. XVIII asrning ikkinchi yarimi va XIX asr boshlariga kelib, tadqiqotchilar o‘xshatishning maqsad va vazifasini o‘rganishga alohida e’tibor qaratadi. Hozirgacha ko‘p hollarda fiziklardan tortib antropologlarga o‘xshatish metafora bilan bog‘langan holda o‘rganilib kelinadi. 80 yillar ohiri va 90 yillarning boshidan J. Baldwin “The Book of Similes. Futura”, L. Beslexim “Simile and Figurative Language”, J. Xanson “Similes: As Gentle as a Lamb, Spin Like a Top, & Other “Like” or “As” Comparisons Between Unlike Things” kabi kitoblarida o‘xshatishni metaforadan alohida o‘rganishgan.

Tadqiqotining maqsadi ingliz, o‘zbek va qozoq tillari badiiy matnidagi o‘xshatishning stilistik usullarining kognitiv-semantik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganishdan iborat

Kutilayotgan tadqiqot natijalari va ilmiy yangilik. Ingliz, o‘zbek va qozoq tillari materiallari bo‘yicha o‘xshatishning kognitiv-semantik modellarini kompleks tasniflashni amalga oshirish;

O‘xshatish o‘z mohiyatiga ko‘ra ikki bosqichga ega hodisadir. Bunda birinchi bosqich dunyoni bilish usuli, boshqacha aytganda, aqliy operatsiya bo‘lib, bunda «A» predmet yoki hodisaning «V» bilan o‘xhashligini aniqlash maqsadida yoki umuman, «A»ning noma'lum xususiyatlariga uni «V»ga solishtirish orqali oydinlik kiritish maqsadida qiyoslanadi. Ushbu jarayonlarning natijasi «A» va «V» o‘rtasidagi o‘xhash tomon – «S» xususiyatning aniqlanishidir. Agarda «S» xususiyat aniqlansa, keyingi – ikkinchi bosqich amalga oshadi: ikki qiyoslanayotgan ob'ekt bilan birga, uchinchi uzviylikka ham katta e'tibor qaratiladi va o‘xshatish shakllanadi.

O‘xshatishlar tuzilishiga ko‘ra ikki turga ya'ni: 1) individual (muallif) o‘xshatishlar yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlarga bo‘linadi.

Turg‘un o‘xshatishlar - o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqaror bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan ko‘llangan bo‘lsada, vaqt o‘tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg‘unlashgan, umumxalk tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi. Badiiy-estetik qiymat nuqtai nazaridan erkin o‘xshatish o‘quvchida muayyan ruhiy yoki jismoniy holat, predmetlarning xususiyatini o‘quvchi ongida yaqqol gavdalantiradi.[8,18;]

Individual o‘xshatishlar muallifning o‘ziga hos ijod mahsuli bo‘lib, o‘zining etnik, ijtimoiy, psixologik va lisoniy bilimlariga ko‘ra obrazlar hosil qiladi. Individual o‘xshatish aksar holatlarda badiiy matnda ekspressivlikni oshirish uchun ishlataladi va bunga misol keyingi qatorlarda keltirilgan.

Kutilayotgan tadqiqot natijalari va ilmiy yangilik. ingliz, o‘zbek va qozoq tillari materiallari bo‘yicha o‘xshatishning kognitiv-semantik modellarini kompleks tasniflashni amalga oshirish;

O‘xshatish o‘z mohiyatiga ko‘ra ikki bosqichga ega hodisadir. Bunda birinchi bosqich dunyoni bilish usuli, boshqacha aytganda, aqliy operatsiya bo‘lib, bunda «A» predmet yoki hodisaning «V» bilan o‘xhashligini aniqlash maqsadida yoki umuman, «A»ning noma'lum xususiyatlariga uni «V»ga solishtirish orqali oydinlik kiritish maqsadida qiyoslanadi. Ushbu jarayonlarning natijasi «A» va «V» o‘rtasidagi o‘xhash tomon – «S» xususiyatning aniqlanishidir. Agarda «S» xususiyat aniqlansa, keyingi – ikkinchi bosqich amalga oshadi: ikki qiyoslanayotgan ob'ekt bilan birga, uchinchi uzviylikka ham katta e'tibor qaratiladi va o‘xshatish shakllanadi.

O‘xshatishlar tuzilishiga ko‘ra ikki turga ya'ni: 1) individual (muallif) o‘xshatishlar yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlarga bo‘linadi.

Turg‘un o‘xshatishlar - o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqaror bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan ko‘llangan bo‘lsada, vaqt o‘tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg‘unlashgan, umumxalk tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar xuddi tildagi

tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi. Badiiy-estetik qiymat nuqtai nazaridan erkin o‘xshatish o‘quvchida muayyan ruhiy yoki jismoniy holat, predmetlarning xususiyatini o‘quvchi ongida yaqqol gavdalantiradi.[8,20]

Individual o‘xshatishlar muallifning o‘ziga hos ijod mahsuli bo‘lib, o‘zining etnik, ijtimoiy, psixologik va lisoniy bilimlariga ko‘ra obrazlar hosil qiladi. Individual o‘xshatish aksar holatlarda badiiy matnda ekspressivlikni oshirish uchun ishlatiladi va bunga misol keyingi qatorlarda keltirilgan.

Yurtimizning zamondosh olimi Djusupov ta’kidlaganidek: “Zamonaviy tilshunoslikning rivojlanishi til va nutqning ko‘plab hodisalarini o‘rganishda fanlararo va xilma-xil yo‘nalishlar tizimida izlanishlar olib borishni talab qiladi” [3,33].

Tahlil metodi - kontseptual analiz bo‘lib, freym konstruktsiyasi orqali kontseptlarning aqliy maydonda paydo bo‘lish jaryoni yoritildi. Kognitiv modellashtirish usuli - modellashtirish xususiyatlarini tahlil qilish va taqqoslashning stilistik usuli semantikasida ifodalangan bilim tuzilmalarini faollashtirish uchun ishlatiladi.

Tadqiqotimizda o‘xshatish kognitiv jarayon sifatida tahlil qilindi. Til va ong o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar muammolari, dunyonи nazariy va amaliy turkumlashda, dunyonи idrok etish jarayonlarida va inson tajribasini umumlashtirishda, alohida kishilarning bilish qobiliyatları bilan ularning til orqali o‘zaro aloqa shakllanishida o‘xshatishning roli muhimdir. Kognitiv tilshunoslikda bu jarayon “kontseptual birlashma” (conceptual blending), shuningdek “kontseptual integratsiya”(conceptual integration) deb ham ataladi. Ushbu nazariya J. Fokonniyer va M. Terner tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariyaga ko‘ra, turli xil hayotiy jaryon va tushunchalar, munosabatlar ong ostida bir biri bilan tutashadi va tilda aksini topadi.

“Inson soddalik bilan “ma’no so‘z orqali ifoda etiladi”deb ishonadi. Biz aslida o‘sha materiya haqida nima deb o‘ylasak shuni gapirishimiz va so‘zga ma’noni joylashimiz demakdir”. Fakon'e ta’kidlaganidek, kuzatilgan “muz tog‘i (aysberg)ni tashkil etuvchi so‘zlardan tashqari uning mazmunini imlitsit(yashirin) aysbergning quyida juda ko‘p salmoqli ma'lumotlar yotadi. Inson ma'no kodlash jarayonida miyasidagi sodir bo‘layotgan kimyoviy reaktsiyalardan bexabar bo‘ladi. Tilda nafaqat ma'no talqin qilish roli, balki bo‘s sh aqliy makonlarni konstruktiv yaratish va ularni to‘ldirish vazifasi ham mavjud. Inson muloqotining muvaffaqiyati suhbattoshlar tomonidan qurilgan konstruktsianing o‘xshashligiga bog‘liq. Bu jarayonda nafaqat lisoniy balki ekstralengvistik omillar ham ta’sir ko‘rsatadi”. [3,40]. Quyidagi misollarda yozuvchining niyatini anglash yani kodlash o‘quvchiga qiyinlik qilmaydi.

Twinkle, twinkle, little star,
How I wonder what you are!
Up above the world so high
Like a diamond in the sky.
(Taylor, The star)

Ingliz tilida olmos “diamond” yulduzning yaltiroq, nur taratuvchi xususiyatini ifodalagan bo‘lsa, o‘zbek tilida ham bu xususiyat “billur” bilan ifodalanadi.

Zayniddin chalg‘ish va birpas ovunish niyatida mayda-mayda tomchilar ingan, neon chiroqlari yorug‘ida billur kabi tovlanayotgan kizil-sarik atirgul yaproqlariga tikildi. (A. Dilmurod. Kunsuluv)

Uvada kamzulda **billur tugmaday**


Bulutlar ortidan boqadi yulduz.

(A.Oripov, Bahor)

Ko‘rinib turibdiki, o‘xshatish o‘quvchi tassavurida quyoshni eng yaltiroq, kamyob va qimmatbaho ob'ekt sifatida gavdalantiradi.

Asar muallifi o‘quvchida shu kabi o‘xhash kostruktsiyani yaratishga harakat qiladi va ekspressivlikni ta'minlaydi. Quyidagi misolda yozuvchi analogiyaning kontseptual jarayoni-o‘xshatishdan foydalanganda ikkita elementni taqqoslaydi. Maqsad maydoni - A va manba maydoni - V ma'no tashuvchi bo‘lib, uchinchi element – Ye A va V maydonning o‘zaro uzatgan ifodasidir. Bu jarayonni quyidagicha tasvirladik.

I am writing a book about them. So I need room. **Like a museum.**



MUSEUM –“mūsēum place sacred to the Muses, building devoted to learning or the arts”[Collins]- ya’ni muzey yunoncha “mūsēum » so‘zidan olingen bo‘lib, “muzalar dargohi, ya’ni ilbhom chashmasi” degan ma’noni bildiradi. Avtor aynan shu ma’noni o‘quvchi ongida kontseptuallashtirmoqchi bo‘lgan bo‘lsa ajab emas, chunki muzey so‘zi bilan bir necha yana boshqa kontseptlar birga kelishi mumkin masalan: yexhibitions, institution, displaying, preserving, culturally significant objects. Badiiy matnda muallif o‘zining etnik, ijtimoiy, psixologik va lisoniy bilimlariga ko‘ra obrazlar hosil qiladi. Badiiy matnning asosiy vazifasi o‘quvchiga estetik ta’sir ko‘rsatishidir. Muallif o‘quvchi ongida his-tuyg‘ularni, assotsiatsiyalarni uyg‘otishga xarakat qiladi va shu maqsadda tildagi turli xil ifoda vositalaridan keng foydalanadi. Eng ajoyib ifoda vositalaridan biri o‘xshatish taqqoslash maxsulidir. Inson hayoti va faoliyatida taqqoslash haqiqatni bilish usuli bo‘lib, ob'ektning xarakterli xususiyatlarini ilg‘ashga imkon beradi.

Kognitiv tilshunoslik, til va ong o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik muammolarini, dunyoni nazariylashtirish va turkumlashtirda tilning rolini, olamni idrok qilish jarayonlarida va inson tajribasini umumlashtirishda, insonlarning bilish qobiliyati va til orqali ularning o‘zaro ta’sir shakllari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi. Kognitiv tilshunoslar Dj. Lakoff, R. Langaker, J. Fokonъe va L. Talmi kabilalar kontsept – tushuncha va inson ongidagi tilga bog‘liq turkumlanish jarayonlarini tahlil qilish orqali tilshunoslikdagi yangi sohaga tamal toshi qo‘ydilar.

Ingliz, o‘zbek va qozoq tillaridagi taqqoslash mahsuli - o‘xshatish badiiy matnda majoziy obraz yaratadi va kontseptual maydon hosil qiladi. Kontseptning inson

tomonidan qanday idrok qilinishi esa, o‘quvchining mentaliteti va hayotiy malakasi va bilimiga bog‘liq bo‘ladi.

V.A.Maslova ta’kidlaganidek, dunyoni idrok qilish o‘xshatish semantikasida o‘z aksini topar ekan, o‘xshatish dunyo suvratinining milliy ifodasini tashuvchi vazifasini bajaradi. [7,146]

Til oilasiga va geografik joylashuvi ta’siri bois, o‘zbek va qozoq tilidagi badiiy matnda milliylik va qadriyatlar kontseptosferasida hind yevropa oilasiga mansub ingliz tilidan farqliroq bir xil o‘xshatishlar mavjud. Qadriyatlarning o‘xshash tomonlari bois ikki tildagi o‘quvchilar uchun kodlash jarayoni oson amalga oshadi. Quyidagi misollar buning yorqin ifodasidir.

Barchaga barobar meros bu bashar,

Otadan qosh-ko‘zni olgan o‘g‘ildek.

(A. Oripov. Saylanma. Genetika)

Ikki qardosh tillar mualliflari Vatanni stereotip assotsiatsiya - ota meros yurt sifatida izoh beradilar.

Ата-баба мұрасы-

Көздің қара-ағында!

Соларды хая шапқанда

Лауламас кім жалындай?! (К. Әбдіқадыр Сұраншы батыр)

Xalqlarning tarixi, hayoti, yashash tarzi, madaniyati, psixologiyasining ba’zi jihatlari bir biriga o‘xshash bo‘ladi, garchi, tilning genetik aloqasi ajralib tursada, o‘xshatishning ishlatalishida manba - ishoralar bir hil obraz yaratganligining guvohi bo‘lamiz. Masalan: Baliqqa ishora qilish orqali ingliz tilida “o‘zini yaxshi his qilmoq, erkin harakat qilmoq” ma’nolari talqin qilinadi.

He was famous for running and leaping. He swam **like a fish**, and even had some skill as a musician. (Dolf Heyliger. W. Irving)

O‘zbek tilidagi misolda ham erkinlik kontsepti uchun “baliq” obrazi manba sifatida foydalanilgan.

U ko‘zlarining toshqinida baliq kabi suzgan men, ayriliqni o‘ylaymi?

Boshqa dunyo, boshqa o‘ydan bog‘lanishni uzgan men, senga qarab to‘yaymi? (Cho‘lpon. Sendan yiroqda.)

“Tinch, beozorlik” obrazini yaratishda mushuk yoki mushukchaga ishora qilinadi:

It’s merely a smile, a formal kind of smile, friendly but a little distant, **as if I’m a kitten** in a window. (M. Atwood. The handmaid’s Tale)

Hovli betida yurgan Abdushukur mahdum ko‘cha eshik tagidagi oyoq sharpasini sezib, mahsi – kalishda mushukday tovushsiz qadam bosib kelib, eshikni ochdi. (Y. Sulaymon. Armon.).

Chaqaloq ishorasi “yoqimtoylit, begunohlik”ni anglatadi:

Lurel’s manner went quite to pieces; she absented herself **like a child** that has asked, ‘May I get down?’ her chin dropped, her eye wandered, once or twice she looked up at the brim of her hat. (Elizabeth Bowen. Friends and relations.)

Ko‘zлari **cho‘lponday** charaqlab turadigan, yuzlari **sutga chayilgandek** tiniq, **go‘dakday** yoqimtoy bu ma’suma faqat husnda emas, ilm va nazm bobida ham benazir edi. (O. Yoqubov. Ulug‘bek hazinasi).

Kognitiv semantik tahlil uchta tillarda o‘ziga hos uch xil milliy xususiyatlarni aniqlashga yordam berdi. Tabiiyki, uch xil mentalitetga hos o‘quvchilar kontseptosferasida turli kontseptual maydon hosil bo‘ladi. Bunga go‘zallik va sevgi ramzlarini ifodalovchi o‘xshatishlarni misol keltirishimiz mumkin.

You can't feed me that one. She and me are **like Romeo and Juliet** and there isn't a balcony can hold me back.' (Jeffrey Ashford. The anger of Fear.)

ROMEO VA DJULETTA Shekspirning 1591-1596 yillarda yozilgan tragediyasidagi qahramonlar bo‘lib, yosh oshiqlar va halokatli sevgining timsoliga aylangan bo‘lib, misoldan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchi idrokida avval Shekspir asaridagi qahramonlar gavdalantiriladi. So‘ngra quyidagi jarayon: 1 chi aqliy maydonda SHE AND ME va ikkinchi aqliy maydonda ROMEO and JULIET, aralash maydonda esa ajratib bo‘lmaydigan, jafokash SEVISHGANLAR obrazi hosil qilinadi.

Qiz degani **Zulayhoday** suluv bo‘lsa ham,

Sevolmaydi uni hech kim, sevmasa elin.

(M. Yusuf. Sizga aytsam)

ZULAYHO – Sharq xalqlari og‘zaki va yozma adabiyotida keng tarqalgan afsonaviy qahramon. Firdavsiy (10-a.), Ali (13-a.) Durbek (14-a.) va boshqa shoirlarning mashhur afsona, rivoyatlar va muqaddas kitoblar (Tavrot, Qur'on) ta'sirida yaratilgan «Yusuf va Zulayho» dostonlarida oliyjanob qiz obrazida gavdalanadi. Bu ishqiy-sarguzasht xarakteridagi asarlarda islom dini zaminida talqin etiladi. Qizning har bir xatti harakati, nutqi, kishilar bilan munosabatida odob-axloqning yuksak namunalari o‘z ifodasini topgan. Matonatli, kat‘iyatli, kuchli irodali ayollar obrazi bo‘lib, chin sevgi, sadoqatning yorqin timsoli sifatida kuylanib kelingan.

Ортамызда Төлеген тұрсын зорға ахай

Сүріндірме бозжорға қызыға нұрға әгугай угай-ай

Кыз Жибектейин қыздарды ойласан не кетеды-ай ахай

Орамалы тұрады-ай биши жорға әгугай угай-ай. (Алия Абылхайыр. Кыз Жибек)

QIZ JIBEK – qozoq xalq lirik-eposi “TӨLEGEN ben QIZ-JIBEK”dagi qaxramon bo‘lib, IPAK QIZI ya’ni ipakdek nozik qiz degan ma’noni anglatadi. TӨLEGEN va QIZ-JIBEK obrazlari chin sevgi, do‘stlik, vatanparvarlik, jasorat va sadoqatni tarannum etadi. Misoldan ko‘rinib turibdiki, inglizlarning milliy sevgi timsoli Romeo va Jul’etta bo‘lsa, o‘zbek tilida Yusuf va Zulayho, qozoq tilida Telegen va Qiz Jibekdir. Bu timsollar orqali o‘xshatish milliylikka yo‘g‘rilgan bo‘lib aqliy maydonda o‘ziga hos mentalitet va milliylik bilan bog‘langan kontseptosfera paydo bo‘ladi.

Muhokama va natijalar

“Obrazlilikning lingvistik va adabiyy xususiyatlarining farqi shundaki, lingvistik nuqtai nazardan obraz asosan til va nutq birligining (so‘z, so‘z birikmasi, jumla, xatboshi,

matn), semantik xususiyatlari (mazmuni) sifatida qaraladi; adabiyotshunoslikda obraz asosan badiiy asar obrazlari tizimida ko‘rib chiqiladi, muallifning estetik maqsadining ifodasi bo‘lib xizmat qiladi. Adabiy nuqtai nazardan obraz tushunchasi biroz kengaytirilgan bo‘lib, u butun asarning g‘oyaviy mazmuniga bo‘ysundirilgandir” [3,33]. Quyida o‘xshatishning obraz hosil qiluvchi fuktsiyasiga misollar keltirilgan.

I know you:

You are light as **dreams**, Tough as oak,

Precious **as gold**,

As poppies and corn, Or an old cloak: Sweet **as our birds**

Xulosa. Barcha tahlillar quyidagicha xulosalarga olib keldi: Dunyoning kognitiv suvralti ma'lum bir madaniyat tomonidan belgilangan kontseptosfera va ong stereotiplari to‘plamidir. Olamning vositachilik tasviri-ikilamchi belgilar tizimining fiksatsiyalanish mahsuli bo‘lib, dunyoning tasvirini kontseptlar orqali moddiylashtiradi. Olamning badiiy tasviri o‘quvchi ongida muallif tomonidan berilgan kontseptni idrok qilish orqali paydo bo‘ladi. Olamning badiiy tasviri milliy ramzlar, milliy-maxsus kontseptlar orqali matnda ko‘rsatib beriladi. Olamning badiiy tasvirini yaratishda o‘xshatishning roli muhim bo‘lib, asarning jozibador salmoqli bo‘lishiga hissa qo‘sadi. Badiiy matn yaratilishi ham uning o‘zi ham, badiiy butunlik sifatida o‘quvchi(tinglovchi) tomonidan tushunilishi jarayoni, idrok etilshi ham murakkab estetik faoliyatdir. O‘xshatishning inson ongida faoliyat olib borishini uchta tarkibiy qismga ajratdik:

- 1) muallif niyati va ijodkor ongida voqelikning estetik in'ikosi natijasida badiiy obrazlarni paydo qiladi;
- 2) Badiiy obraz estetik materialda gavdalanishi ya'ni moddiylashuvi va estetik faoliyat mahsuli-san'at asarining yuzaga kelishiga qulay manba bo‘ladi;
- 3) San'at asarining omma tomonidan qabul qilinishi, ya'ni estetik idrok jarayoni sifatida faoliyat olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Baldwin, Robert; The book of similes. Futura. 1982 Paris
2. Catherine Addison. From Literal to Figurative: An Introduction to the Study of Simile Author(s): College English, Vol. 55, No. 4 (Apr., 1993)
3. Джусупов Н.М. Когнитивная стилистика: современное состояние и актуальные вопросы исследования // Вопр. когнитивной лингвистики. 2011. № 3.
4. Fauconnier, G., & Turner, M. (2002). *The way we think: Conceptual blending and the mind's hidden complexities*
5. Joan Hanson Word Bks.: Similes: As Gentle As a Lamb, Spin Like a Top, and Other "Like" or "As" Comparisons Between Unlike Things by Joan Hanson (1976, Library Binding)
6. L. Bethlehem Simile and Figurative Language. 22 January 1996. Art, Linguistics

7. Маслова В. Лингвокультурология Языковая картина мира: Москва. 2001:146

8. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули // Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.